



Malika MARDIEVA,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: malikamardiyeva44@gmail.com

F.f.d M.G'afforova taqrizi asosida

GENDER JIHATLARINI REAL HOLATDA, O'ZGARISHLAR DINAMIKASI TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqolada gender jihatlarining real holati, sohadagi o'zgarishlar dinamikasi hamda xalqaro indeks va reytinglar asosida O'zbekiston Respublikasining gender tengligi bo'yicha tutgan o'rni chuqur tahlil qilinadi. Gender ijtimoiy jarayonlar va rivojlanish ko'rsatkichlarini baholashda muhim mezon bo'lib, uning sifatli va miqdoriy tahlillari orqali mavjud muammolar, huquqiy to'siqlar hamda tengsizlik holatlari aniqlanadi.

Kalit so'zlar: Gender tengligi, ayollar huquqlari, xalqaro indekslar, miqdoriy va sifatli tahlil, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, norasmiy mehnat.

ANALYSIS OF THE REAL STATE AND DYNAMICS OF CHANGES IN GENDER ASPECTS

Annotation

This article presents a thorough analysis of the real state of gender aspects, the dynamics of changes in the field, and Uzbekistan's position in terms of gender equality based on international indexes and rankings. Gender is a key criterion in assessing social processes and development indicators. Through both qualitative and quantitative analysis, the study identifies existing problems, legal barriers, and cases of inequality.

Key words: Gender equality, women's rights, international indexes, quantitative and qualitative analysis, socio-economic development, informal employment.

АНАЛИЗ РЕАЛЬНОГО СОСТОЯНИЯ И ДИНАМИКИ ИЗМЕНЕНИЙ ГЕНДЕРНЫХ АСПЕКТОВ

Аннотация

В данной статье проводится всесторонний анализ реального состояния гендерных аспектов, динамики изменений в данной сфере, а также позиции Республики Узбекистан в вопросах гендерного равенства на основе международных индексов и рейтингов. Гендер является важным критерием в оценке социальных процессов и показателей развития. Посредством качественного и количественного анализа выявляются существующие проблемы, правовые барьеры и случаи неравенства.

Ключевые слова: Гендерное равенство, права женщин, международные индексы, количественный и качественный анализ, социально-экономическое развитие, неформальная занятость.

Kirish. Gender tushunchasi ijtimoiy jarayonlarning borishini tahlil qilishda asosiy vositalardan biri sifatida e'tirof etiladi. Gender munosabatlarini o'rganish orqali inson salohiyatining o'sishi, mavjud muammolar va zaif jihatlarini aniqlash mumkin. Biroq genderni aniq mezonlar asosida baholash murakkab jarayon hisoblanadi. Shu bois xalqaro miqyosda gender bilan bog'liq turli mezonlar, meyoriy hujjatlar hamda maxsus indikatorlar ishlab chiqilgan. Ular gender holatini baholash, muammolarni aniqlash, ularning yechimini topish hamda ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatlar rivojlanishining turli bosqichlarida gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar, qonunchilik asoslari va institutsional mexanizmlar joriy qilinmoqda. Xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan genderni baholashda indekslar va reytinglar — masalan, "Global Gender Tafovuti", "Ayollar, Biznes va Qonun", "Gender Tengsizlik Indeksi" — orqali davlatlar o'rtasida bu boradagi farqlar ochiq namoyon bo'lmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi global taraqqiyot sharoitida mamlakatlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va madaniy sohalaridagi rivojlanish darajasini belgilab berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bu borada xalqaro reytinglar va indekslar muhim vosita hisoblanadi. Mazkur reytinglar orqali har bir davlatda mavjud vaziyatga obyektiv baho berish mumkin. Hozirgi kunda ko'plab xalqaro tashkilotlar va tadqiqot markazlari tomonidan gender tengligiga oid turli indekslar tuzilmoqda. Bu indekslar orqali mamlakatlarda ayollar va erkaklar uchun yaratilgan sharoitlar gender tenglik nuqtai nazaridan baholanadi.

Xususan, gender tenglikni ta'minlash yo'nalishida xalqaro standartlar asosida milliy qonunchilikni takomillashtirishga e'tibor qaratilmoqda. So'nggi yillarda ushbu yo'nalishda 40 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar va strategik dasturlar qabul qilingan. Biroq amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramay, milliy reyting tizimlari hali to'liq shakllanmagan va xalqaro mezonlarga mos ma'lumotlar taqdim etilmayotgani sababli O'zbekiston ko'plab xalqaro reytinglarda past o'rinlarda qolmoqda.

Ushbu tadqiqot doirasida institut tomonidan bir qator nufuzli indekslar — Jahon bankining "Ayollar, biznes va qonun" indeksi, Jahon iqtisodiy forumining "Global gender tafovuti" indeksi, BMT Taraqqiyot Dasturining "Gender tengsizlik" va "Gender rivojlanish" indeksleri, shuningdek, OECD tomonidan ishlab chiqilgan "Ijtimoiy institutlar va gender" hamda "Global ayollar, tinchlik va

xavfsizlik" indeksleri metodologik jihatdan o'rganilib, O'zbekistonning undagi holati tahlil qilindi.

Tahlil natijalari. 2020-yilda O'zbekiston "Ayollar, biznes va qonun" indeksining asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha 27 ta islohotchi davlat qatoriga kirib, 5 pog'onaga yuqorilagan holda 134-o'rinni egallagan. Biroq keyingi yillarda – 2021, 2022 va 2023-yillarda ushbu indeksda O'zbekiston 70,6 ball bilan bir xil natijada qolmoqda. Ko'rsatkichlar kesimida esa "Ish joyi" – 50 ball, "Oylik to'lov" – 25 ball, "Nikoh" – 80 ball, "Pensiya" – 50 ball, "Ota-onalik" – 60 ball bilan baholangan. Boshqa yo'nalishlar – "Harakatchanlik", "Tadbirkorlik" va "Ko'chmas mulk" bo'yicha esa maksimal 100 ball to'plangan.

Gender statistikasi ikkita asosiy yo'nalishda baholanadi: miqdoriy va sifatli yondashuvlar. Miqdoriy ko'rsatkichlar odatda son jihatdan baholanishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni (masalan, ayollar va erkaklarning parlamentdagi ulushi, o'rtacha ish haqi, ta'limga qamrov) o'z ichiga oladi. Ushbu ko'rsatkichlar orqali vaqt o'tishi bilan ro'y bergan o'zgarishlarni kuzatish mumkin. Sifatli tahlil esa insonlarning hayotiy tajribalari, hissiyotlari, munosabatlari va qarashlarini qamrab oladi. Masalan, norasmiy sektor tajribalari yoki oilaviy zo'ravonlik sabablariga oid fikrlar shular jumlasidandir. Bunday ma'lumotlarni yig'ishda intervyu, fokus-grupplar, ijtimoiy xaritalash kabi metodlar qo'llanadi. Shu bilan birga, maxsus so'rovnomma va anketalar orqali insonlarning fikr va hissiyotlari o'rganiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Turli mamlakatlarda gender tengligi masalasiga bo'lgan yondashuv ularning siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy rivojlanish darajasiga qarab farqlanadi. Ba'zi davlatlar bu borada ilg'or natijalarga erishgan bo'lsa, ayrim mintaqalarda muammolar hanuzgacha saqlanib qolmoqda. Xususan, Skandinaviya mamlakatlari – Norvegiya, Islandiya, Finlandiya gender tengligi reytinglarida doimiy ravishda yetakchi o'rinlarni egallab kelmoqda. Masalan, Islandiyada erkaklar va ayollar o'rtasidagi ish haqi tafovuti deyarli mavjud emas, ayollar esa rahbarlik lavozimlarida yuqori ulushni tashkil etadi. Norvegiyada esa ota va onaning har ikkisi uchun haq to'lanadigan ta'lim joriy qilingan bo'lib, bu oiladagi gender tenglikni mustahkamlovchi omil hisoblanadi.

Shu bilan birga, gender tengligi borasidagi inqirozli hududlar qatoriga Janubiy Osiyo (Hindiston, Pokiston, Bangladesh) va Yaqin Sharq mamlakatlari kiradi. Bu davlatlarning ayrimlarida qiz bolalarning ta'lim olish huquqlari cheklangan, voyaga yetmasdan majburiy nikoh hollari kuzatiladi.

Skandinaviya mamlakatlari o'zining gender tengligi borasidagi yutuqlari bilan boshqa davlatlar uchun ibratli tajriba sifatida xizmat qilmoqda. Ammo dunyoning ayrim mintaqalarida bu boradagi muammolar hanuzgacha o'z dolzarbligini yo'qotmagan. O'zbekistonda ham gender tenglikka erishish yo'lida muhim qadmlar tashlanmoqda. Shunga qaramay, bu yo'nalishda sezilarli o'zgarishlarga erishish uchun vaqt, uzluksiz harakat va jamiyat tafakkurida chuqur islohotlar zarur.

Umuman olganda, gender tengligiga erishish – bu uzoq muddatli jarayon bo'lib, u jamiyatning barcha qatlamlariga teng imkoniyatlar yaratish orqali adolatli hayot barpo etish imkonini beradi. Har yili ishlab chiqilayotgan davlat dasturlarida ayollar huquqlarini kuchaytirish, ularni huquqiy jihatdan himoya qilish mexanizmlarini mustahkamlash va butun jamiyatda gender

tengligi borasida xabardorlikni oshirishga yo'naltirilgan tadbirlar tizimli tarzda amalga oshirilishi lozim.

Statistik kuzatuvlarga ko'ra, aksariyat mamlakatlarda ayollar gender tengligiga erkaklarga nisbatan ko'proq e'tibor qaratadi. Biroq, shu bilan birga, ayollar erkaklarga qaraganda o'z mamlakatlarida kelajakda to'liq tenglikka erishishga unchalik ishonmaydi. Ko'plab ayollar erkaklarga qaraganda jamiyatda o'zlarini nisbatan kam imkoniyatli deb hisoblaydi.

Jahon bankining "Ayollar, biznes va qonun – 2022" hisobotida ta'kidlanishicha, mehnatga layoqatli yoshdagi 2,4 milliarddan ortiq ayol teng iqtisodiy huquqlarga ega emas. 178 ta davlatda ayollarning iqtisodiy faol hayotda to'laonli ishtirok etishiga to'sqinlik qiluvchi qonuniy cheklavlar mavjud.

Butun dunyo bo'ylab ayollar erkaklarga berilgan huquqlarning o'rtacha 76,5 foiziga ega, ya'ni to'liq huquqiy tenglik hali ham to'liq ta'minlanmagan. Pandemiyaning ayollar turmush tarziga salbiy ta'sir ko'rsatganiga qaramay, 2021-yilda 23 mamlakat ayollar iqtisodiy faolligini oshirish uchun o'z qonunchilik tizimida muhim islohotlarni amalga oshirgan.

Tahlil va natijalar. O'tkazilgan tahlillar asosida gender tengligiga oid mavjud vaziyatni chuqur o'rganish natijasida quyidagi xulosa va takliflar ishlab chiqildi:

Xalqaro Mehnat Tashkilotining yuz yillik mehnat istiqbollari bo'yicha Deklaratsiyasi hamda Barqaror Rivojlanish Maqsadlariga muvofiq, har bir shaxs uchun ixtiyoriy, samarali va adolatli mehnat sharoitlarini yaratish, gender tengligini ta'minlash masalalarini mamlakatning makroiqtisodiy siyosatining asosiy tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqish zarur;

Davlat siyosatini ishlab chiqish jarayonida inklyuziv yondashuvni qo'llagan holda, xotin-qizlarning fikrlari, ehtiyojlari va muammolarini inobatga olish lozim. Bu, o'z navbatida, gender tenglikka asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot modelini shakllantirish imkonini beradi;

Norasmiy iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq muammolarni aniqlashda, ushbu faoliyatga xos omillar, sabablari va mavjud sharoitlar chuqur tahlil qilinishi lozim. Shu asosda ayollar va erkaklarning norasmiy sektor faoliyatiga jalb etilishini inobatga olgan holda, uch tomonlama ijtimoiy muloqot tamoyillariga tayangan strategiyalar ishlab chiqilishi muhim;

So'nggi yillarda amalga oshirilgan va kelajakda rejalashtirilayotgan islohotlarning norasmiy mehnat bozori tuzilmasiga, iqtisodiyotning barcha sohalarida va hududlarida norasmiy sektor ko'lamiga qanday ta'sir ko'rsatayotganini tizimli baholash lozim;

Ishchi kuchining barcha qatlamlari – ayniqsa ayollar, yoshlar, nogironlar va boshqa ijtimoiy zaif guruhlar uchun samarali huquqiy va ijtimoiy himoya tizimini yaratish, ularning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda alohida yondashuvni ta'minlash kerak;

Mehnat bozorida faoliyat yuritayotgan ayollar, xususan, qishloq xo'jaligi xodimlari, norasmiy ko'cha savdogarlari, uy xizmatchilari, mehnat muhojirlari, nogironligi bo'lgan shaxslar va boshqa zaif guruh vakillariga nisbatan mavjud gender stereotiplarini bartaraf etish maqsadida ommaviy axborot vositalari xodimlari, jurnalistlar va blogerlar uchun maxsus targ'ibot-tashviqot materiallarini ishlab chiqish tavsiya etiladi;

Yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatini tartibga solish doirasida, ularga vaqtinchalik mehnat guvohnomalari joriy etilishi bo'yicha chora-tadbirlar

amalga oshirilsa, bu mehnat munosabatlarini rasmiylashtirish hamda gender tenglikni mustahkamlashga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois bu choraning samaradorligini baholash muhim ahamiyatga ega.

Xulosa va takliflar. O'tkazilgan tahlillar va mavjud xalqaro indekslar o'rganilganidan so'ng, gender tengligini ta'minlash sohasida bir qator muhim natijalar va xulosalarga kelindi. Bugungi kunda gender tenglik nafaqat inson huquqlarini himoya qilish, balki jamiyatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashning muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasida gender tenglikni yuksaltirish bo'yicha muhim qadamlar tashlanayotgan bo'lsa-da, xalqaro reyting va indekslardagi holat ushbu yo'nalishda hali yechilishi zarur bo'lgan muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda.

Avvalo, gender tenglikka erishish uzoq muddatli strategik yondashuvni talab qiladi. Bu boradagi islohotlar nafaqat qonunchilik bazasini mustahkamlash, balki ijtimoiy ong va madaniyatda ham chuqur o'zgarishlarni yuzaga keltirishi lozim. Jamiyatda ayollarning iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatdagi ishtirokini kengaytirish, ularni qaror qabul qilish jarayonlarida faol ishtirok etishga undash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu asosda, quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

Makroiqtisodiy siyosatga gender komponentini integratsiya qilish – barqaror rivojlanish va ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslangan holda, barcha islohotlarda gender masalalarini inobatga olish zarur.

Ayollarning fikr va ehtiyojlarini inobatga olgan holda siyosat ishlab chiqish – inklyuziv yondashuv asosida,

jamiyatning barcha qatlamlarini, ayniqsa ayollarni, siyosiy va iqtisodiy qarorlar qabul qilish jarayonlariga jalb etish lozim.

Norasmiy iqtisodiyotda ishlayotgan ayollar holatini yaxshilash – ayollar faoliyat yuritayotgan norasmiy mehnat sektori sharoitlarini chuqur o'rganib, ularni rasmiylashtirish yo'llarini ishlab chiqish va munosib mehnat sharoitlari yaratish bo'yicha kompleks yondashuv talab etiladi.

Huquqiy va ijtimoiy himoya mexanizmlarini kuchaytirish – barcha toifadagi ishchilar, xususan ayollar uchun mehnatga oid huquqlarning kafolatli himoyasi va ijtimoiy ta'minot tizimini takomillashtirish lozim.

Gender stereotiplarni bartaraf etish bo'yicha axborot-kampaniyalarni kengaytirish – OAV, bloggerlar va fuqarolik jamiyati institutlari orqali gender tenglik g'oyalarini targ'ib qilish va gender stereotiplarga qarshi kurashish zarur.

Mehnat munosabatlarini rasmiylashtirishni rag'batlantirish – yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun vaqtinchalik mehnat guvohnomalarini joriy etish orqali ularni rasmiy iqtisodiyotga jalb qilish, bu orqali gender tenglikni ta'minlashga ijobiy ta'sir ko'rsatish mumkin.

Yuqoridagi takliflar gender tenglikni ta'minlashga xizmat qiluvchi tizimli va uzoq muddatli islohotlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ular amalda qo'llanilganda, nafaqat ayollar, balki jamiyatning barcha qatlamlari uchun adolatli, teng va barqaror hayot sharoitlarini yaratishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Nurqulov B. G. The main theoretical approaches to the concept of political socialization //Academic research in educational sciences. – 2024. – №.
2. Нуркулов Б., Равшанова О. Jorj Gerbert Midning ramziy interaksionizm nazariyasi //NRJ. – 2024. – T. 1. – №. 3. – C. 402-405.
3. International Labour Organization. (2021). Women and Men in the Informal Economy: A Statistical Picture (Third Edition). https://www.ilo.org/global/publications/books/WCMS_754919/lang--en/index.htm
4. Nurqulov B. et al. Pitrim Sorokinning “sotsial va madaniy dinamika” ASARI //NRJ. – 2024. – T. 1. – №. 3. – C. 289-291.
5. Panjiyeva Z. et al. Razmiy interaksionizm tamoyillari //NRJ. – 2024. – T. 1. – №. 3. – C. 292-295.
6. Холикова М, Ишанханова Г., Пўлатова Ш. Гендер тенглиги: ғоядан қонунга қадар: услубий қўлланма.- Тошкент : Akademnashr, 2021.